

## O‘ZBEK VA JAHON XALQ ERTAKLARINI O‘RGATISHDA ETNOFOLKLORISTIK TAHLIL METODIDAN FOYDALANISH

*Abdusattorova Dilshodabegim*  
*ToshDO‘TAU doktoranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ertak janrining o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritiladi va shu bilan birga ertaklar har bir xalqning tarixini, ma’naviy-madaniy turmush tarzini, ichki dunyosini, imon-e’tiqodini boshqa qardosh el-u elatlar bilan ijtimoiy munosabatlarini, urf-odatlarini, yashash joyining iqlimi va tabiiy shart-sharoitlarini o‘rganishdagi ahamiyatini etnofolkloristik tahlil qilish orqali bayon etiladi.

**Kalit so‘zlar:** ertak, janr, xususiyat, xalq, elat, to‘qima, imon-e’tiqod, ma’naviy-madaniy, epik sarguzasht, etnofolkloristika, tahlil, qiyosiy pedagogika

**Аннотация:** В данной статье размышляются специфические особенности жанра сказки, и в то же время сказки отражают историю, духовный и культурный образ жизни, внутренний мир, веру, общественные отношения с другими народами, обычаи и традиции каждого народа. Объясняется важность изучения обычаев, климата и природных условий места проживания посредством этнофольклористического анализа.

**Ключевые слова:** сказка, жанр, особенность, народный, народный, ткань, вера, духовно-культурный, эпическое приключение, этнофольклористика, анализ, сравнительная педагогика.

**Abstract:** This article reflects on the specific features of the genre of fairy tales, and at the same time, fairy tales reflect the history, spiritual and cultural lifestyle, inner world, faith, social relations with other peoples, customs and traditions of each nation. The importance of studying customs, climate and natural conditions of the place of residence is explained through ethno-folkloristic analysis.

**Key words:** fairy tale, genre, feature, folk, folk, fabric, faith, spiritual-cultural, epic adventure, ethno-folkloristics, analysis, comparative pedagogy

**Kirish**

## International Conference on Education and Innovation

Ertak xalq og‘zaki ijodidagi badiiy nasrning eng qadimiy va ommaviy namunasi hisoblanadi. Har birimiz bolalik vaqtimizdan ertak eshitib o‘samiz. Bolalarni ovutish uchun kattalar ertak aytib beradilar, bolalar ham ulg‘ayib, maktabga bora boshlagan vaqtlaridan kichik-kichik ertaklarni o‘zlari ayta boshlaydilar. Bu bolaning bir-biriga aytgan ertaklari qisman kattalardan eshitgani qisman esa o‘zi to‘qigani bo‘ladi. Tadqiqotchi Yu. Sokolovlar shuni nazarda tutib bo‘lsa kerak: «Bolalarning bir-birlariga aytib bergan ertaklari esa, deyarli yozib olinmadi», deb afsus qilgan edilar. Haqiqatan ham to‘plangan xalq ertaklarini aytib beruvchilarni ko‘zdan kechirar ekanmiz, aksariyat kattalar tomonidan aytilganining guvohi bo‘lamiz. Har bir millatning, xalqning ertagi o‘sha yurtning tarixini, ma‘naviy-madaniy turmush tarzini, ichki dunyosini, imon- e‘tiqodini boshqa qardosh el-u elatlar bilan ijtimoiy munosabatlarini, urfodatlarini, yashash joyining iqlimi va tabiiy shart-sharoitlarini o‘rganishda muhim manba vazifasini o‘taydi.

O‘zbek pedagogikasida adabiyot o‘qitishning bosh maqsadini p.f.d., prof. Q.Yo‘ldoshev ilk bor batafsil va to‘g‘ri belgilab bergan edi: “...Barkamol shaxsni shakllantirish marrasi milliy maktablrimizda adabiyot o‘quv predmetini o‘rganish uchun bosh maqsad bo‘lishi mumkin ekanligini qadimiy qadriyatlarimiz ham, ma‘naviy an‘analarimiz ham, uzoq tarixga ega pedagogik amaliyotimiz ham, kishilarimiz ruhiy olamiga singib ketgan badiiy adabiyotimiz ham taqozo etadi” Barkamol shaxsni shakllantirish nafaqat adabiy ta‘lim, balki ta‘limning umumiy o‘rta bosqichida barcha fanlarni o‘qitishdan ko‘zlangan bosh maqsaddir.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.**

Keyingi yillarda mavzuga aloqador tadqiqot ishlari, bir qator ilmiy-metodik maqolalar yuzaga keldi. Xususan, Marg‘uba Mirqosimovanning “O‘quvchilarda etnofolkloristik tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari”, Qozoqboy Yo‘ldoshevning “Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari”, Boqijon To‘xliyevning “Adabiyot o‘qitish metodikasi”, V.Qodirovning “Mumtoz adabiyotni o‘qitishning etnofolkloristik muammolari va yechimlari” kabi kitoblar yaratildi.

Fransuz olimi Arnold Van-Gennepe "Din, odatlar va afsonalar" nomli besh jildlik asarining 1908-yilda chop ettirilgan 2-jildidagi etnografiyaning tarixiy taraqqiyoti haqidagi maqolasida folklorshunoslikdagi etnofolkloristik va qiyosiy metodlarni bir-biridan farqlanuvchi usullar sifatida baholagan. U tarixiy metod hodisalarni muayyan xronologik tartib asosida baholaydi hamda yozma materiallardan foydalangan holda hujjatlilikka tayanadi, qiyosiy metod esa zamoniy va makoniy jihatdan abstrakt holatda ish ko'radi hamda og'zaki manbalarni ham jalb qiladi. Har ikkala holatda ham tadqiqot predmeti o'zgarmasligi bu metodlar muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkinligini ko'rsatadi. X.M. va N.K.Chadviklar polineziyaliklarning madaniy qahramon haqidagi miflari, Sibirda yashovchi turkiy xalqlar ertaklari, antik, qadimgi gennan va kelt qahramonlik dostonlari, rus hamda janubiy slavyan eposi syujetini o'zaro qiyoslab, etnofolkloristik tahlil sifatida o'rganish asosida, tahlil etilgan matnlarning badiiy qurilmasida tipologik mushtaraklik mavjudligini aniqlashgan. Ularning fikricha, turli xalqlar folkloridagi bunday tipologik mushtaraklik "adabiy an'ananing parallel rivoji" hamda "turmush tarzi va ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlarning o'xshashligi" natijasida yuzaga keladi. O'rta asr Yevropa eposi syujetini turkiy va mo'g'ul xalqlari folklori bilan qiyoslab o'rgangan G.N.Potanin tipologik aloqalarni ham aynan etnofolkloristik tahlil orqali aniqlaganlar.

### **Tahlil va natijalar.**

Ma'lumki, etnofolkloristik tahlil an'anaviy komparativistika (ya'ni qiyosiy adabiyotshunoslik) jo'g'rofiy o'rni va madaniy-iqtisodiy an'analarga ko'ra bir-biridan farqlanuvchining tarkibiy qismlaridan biridir. Bunday tadqiqot metodi asosida etnik kelib chiqishi, lisoniy mansubiyati, xalqlar folkloridagi mushtarak syujetlarning yuzaga kelish qonuniyatlari o'rganiladi. Turli xalqlar folklori o'rtasidagi aloqalarning bir necha tiplari mavjud bo'lib, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun ham folklor asarlarini ilmiy tadqiq etishning keng tarqalgan va samarali metodlaridan biri "qiyosiy-etnofolkloristik tahlil metodi" hisoblanadi.

“Etnofolkloristik metod” deganda muayyan folklor janri, epik syujet, motiv yoki obrazni boshqa xalqlar og‘zaki badiiy ijodi materiallari bilan solishtirib, taqqoslab o‘rganish asosida o‘zaro o‘xshash hamda farqli xususiyatlarni aniqlash nazarda tutiladi. Qiyosiy adabiyotshunoslik borasida olib borilgan izlanishlar o‘zaro adabiy ta’sir va ijodiy o‘zlashtirish masalasini folklor materiallari asosida tekshirishning keng imkoniyatlarini ochadi. Binobarin, o‘zbek folklorining dunyo xalqlari og‘zaki ijodi an’analari bilan ijodiy aloqalari. xususan, o‘zbek-arab folklor aloqalari tizimida syujet ko‘chishi hodisasining yuzaga kelishi, bu epik jarayonning o‘ziga xos estetik qonuniyatlari va tarixiy-tadrijiy rivoji masalalari folklorshunoslar tomonidan endigina o‘rganilmoqda. Olim o‘zaro qiyoslanayotgan hodisalarning mohiyati va maqsadidan kelib chiqib, tarixiy-qiyosiy tadqiqotning quyidagi aspektlarini ajratib ko‘rsatadi:

1) adabiy hodisalarni oddiy solishtirish, taqqoslab o‘rganish tarixiy-qiyosiy yo‘nalishdagi har qanday ilmiy tadqiqotning asosini tashkil etadi. Masalan, tilshunoslikda fransuz va ingliz tilidagi fe‘l so‘z turkumini yoki rus tilidagi fe‘l shakllarini o‘zbek tilida ifodalashning grammatik vositalarini tahlil qilish, o‘z-o‘zidan qiyosiy tadqiqot olib borishni taqozo etadi;

2) tarixiy-tipologik yo‘nalishdagi etnofolkloristika ijtimoiy taraqqiyotning muayyan bosqichlaridagi o‘xshash shart-sharoitlar va tafakkur tarzidagi o‘xshashlik tufayli yuzaga kelgan, ya’ni genetik jihatdan o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan mushtarakliklarni tadqiq etadi;

3) tarixiy-genetik yo‘nalishdagi etnofolkloristika tadqiqot natijasida etnogenetik jihatdan kelib chiqishida umumiylik bo‘lib, keyinchalik alohida-alohida holda taraqqiy etgan etnoslar madaniyati o‘rganiladi;

4) dunyo xalqlarining o‘zaro madaniy aloqalari, bir-biriga ta’siri va adabiy “o‘zlashtirmalari” natijasida yuzaga kelgan mushtarakliklarni aniqlashga qaratilgan etnofolkloristik tahlil bu tipdagi o‘xshashliklarning genetik ildizlari hamda bu hodisalarning shakllanishi uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlarini o‘rganadi.

O‘zbek folklorshunosligida etnofolkloristik tahlil metod asosida bir qator ilmiy tadqiqotlar yaratilgan. Atoqli folklorshunos olim H.T.Zarifovning o‘zbek xalq dostonlarining tarixiy asoslariga doir tadqiqotlarida, M.Afzalov, G‘.Jalolov, K.Imomov, X.Egamovlarning o‘zbek xalq ertaklarining janr xususiyatlari, genezisi va badiiyatiga doir ilmiy asarlarida, shuningdek, M.Saidov, M.Murodov, T.Mirzayev, S.Ro‘zimboyev, H.Abdullayevlarning dostonchilik an‘analari, dostonlar syujeti va obrazlar tarkibini o‘rganishga bag‘ishlangan ishlarida o‘zbek folklori asarlarini Markaziy Osiyo va hatto, jahon xalqlari og‘zaki badiiy ijodi namunalari bilan qiyosiy tahlilga tortish tajribasi faol qo‘llanildi.

**Muhokama.** Etnofolkloristik tahlil metodi ma‘lum bir xalq folkloridagi epik janrlarga xos o‘xshash syujet, motiv, obraz kabi epik komponentlarni o‘zaro kelib chiqishi va tarixiy rivojlanishi asnosida umumiy va o‘ziga xos jihatlarni aniqlash imkonini beradi va mazkur tahlil qilish metodi vositasida genetik kelib chiqishi mushtarak rishtalarga borib taqaluvchi, o‘zaro qardosh (masalan, turkiy) yoki etnik jihatdan qarindoshchilik aloqalari mavjud bo‘lmagan bir necha xalqlar (masalan, turkiy va slavyan, turkiy va fors-tojik) folkloridagi o‘xshashliklarning yuzaga kelish sabablari, bu xalqlar o‘rtasidagi folklor aloqalarini o‘rganish asosida muayyan xalq og‘zaki badiiy ijodining milliy o‘ziga xos jihatlari hamda jahon xalqlari folkloriga xos umumiy belgilari aniqlanadi. Bu metod yordamida folklor materiallarini etnografik, arxeologik manbalar bilan chog‘ishtirib o‘rganish natijasida xalq ijodi namunalari genezisi va yaratilish davrini aniqlashga doir muhim xulosalar chiqariladi, shu bilan birgalikda, folklor asarlarini madaniy yodgorliklarga tahlil qilib, lingvistik tadqiq etadi. Bunda har bir xalqning folklor asarlari o‘sha xalqning qadim ajdodlari tomonidan yaratilgan adabiy-lisoniy yodgorliklar (masalan, “Avesto”, “Devonu lug‘otit turk” kabi) bilan solishtirib, xalq og‘zaki badiiy ijodi leksikasi tadqiq etiladi.

Folklorning muayyan bir janriga oid asarlarni, masalan, ertaklarni boshqa janrlar (doston, afsona, mif, rivoyat, qo‘shiq kabi) bilan qiyoslab tadqiq etish ana shu usulning mohiyatini tashkil etadi. O‘zbek xalq ertaklari bilan dunyo xalqlari ertaklari orasidagi o‘xshashliklarni syujet, motiv va obrazlar o‘xshashligi doirasida keng ko‘lamda

tekshirgan X.Egamov tipologik mushtaraklikning uch tipi mavjudligini aniqlagan edi. Ular quyidagilar:

- a) ma'lum bir xalq folklori (uning muayyan bir janri)dagi tipologik o'xshashliklar;
- b) etnik kelib chiqishi mushtarak yoki bir til oilasiga mansub bo'lgan xalqlar folkloridagi tipologik o'xshashliklar;
- d) bir guruh xalqlar (masalan, slavyan, mo'g'ul, hind, turkiy) folkloridagi tipologik o'xshashliklar. Olim bir xalq folkloridagi mushtarakliklarni "monotip o'xshashlik" termini bilan atagan bo'lsa, etnik jihatdan qondosh xalqlar va jahon xalqlari og'aki badiiy ijodida qayd qilingan o'xshashliklarni "intertip o'xshashlik" deb atashni ma'qul topadi. Shu asosda o'zbek xalq ertaklari bilan jahon xalqlar ertaklari orasidagi o'xshashlik asosan - epik an'ana mezonlari, ertaklarning ichki tasnifi, syujet silsilasi, motivlar tarkibi va kompozitsion qurilish xususiyatlari, asosiy personaj talqini, yordamchi va homiy personajlarning funksiyalari, qadimgi nikoh marosimlari (endogamiya, ekzogamiya, matrilokal nikoh, poligamiya va h.k.)ga oid xalq qarashlarining ertak syujetida aks etishi, arxaik motivlar, mifologik va diniy tasavurlarning talqini saqlanib qolganligida ko'rinishi aniqlandi.

**Xulosa va takliflar.** Ertaklar xalqning necha-necha ming yilliklar davomidagi hayotiy tajribalarini umumlashtirgan holda uning ijtimoiy ongida, estetik didida, axloqiy qarashlarida, e'tiqodida kechgan o'sish-o'zgarishlarning badiiy tarixi sifatida ayri-ayri ahamiyat kasb etgan. Shu bois hozir ham miriqib tinglanadi, sevilib o'qiladi, eng muhimi, navqiron avlodning ma'naviy-axloqiy kamol topishida beqiyos ta'sir ko'rsatib kelmoqda. O'zbek va jahon xalq ertaklarini etnofolkloristik tahlil qilish orqali o'quvchilarga ertakning o'ziga xosliklarini yanada ochib berish esa, mazkur yo'nalishning o'ziga xos yutug'idir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Afzalov M. O'zbek xalq ertaklari haqida. –T.: Fan, 1964
2. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. –T.: 1999.

## International Conference on Education and Innovation

3. O‘zbek xalq ijodi. O‘zbek xalq ertaklari. Gulpari. –T.: Cho‘lpon, 1969.
4. O‘zbek xalq ertaklari. Ikki jildlik. 2-tom. –T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1964. – 516 b.
5. Imomov K. O‘zbek xalq ertaklari \ O‘zbek folklorining epik janrlari. –T.: Fan, 1981. –B.62-69.
6. Imomov K. O‘zbek xalq prozasi. –T.: Fan, 1991. -B. 67
7. Sarimsoqov B. O‘zbek folklorining janrlar sostavi // O‘zbek folklori ocherklari. 1-tom. - Toshkent.: Fan, 1988.-B.63-84.
8. Xorazm ertaklari (nashrga tayyorlovchi: F.Abdullaev). –T.: Fan, 1961. – 190 b.
9. Jumanazarov U. Tarixiy voqyelik va o‘zbek folklori. –T.: Fan, 1991. – B.174
10. Jo‘raev M. O‘zbek xalq nasri janrlarini tasnif qilish mezonlari // O‘zbek tili va adabiyoti, 1996, №5. -B.32.

